

# Rivojlangan Yangi O'zbekistonni Barpo Etishda Taraqqiyot Strategiyasi Va Uzluksiz Ma'naviy Tarbiya Konsepsiyasining Ahamiyati

*Malikova Dildoraxon Qobilovna<sup>1</sup>*

**Anatatsiya:** Maqlada uzluksiz tarbiya konsepsiysi va mamlakatimizning rivojlanishi uchun yo'l xaritasi bo'lib xizmat qilayotgan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha taraqqiyot strategiyasi mazmun mohiyati, mustaqillik davrida ushbu sohada olib borilgan bazi islohotlar, strategiyaning vazifalari, jamiyatda madaniy muhitni yaxshilashda tarbiyaning roli haqida konkret tarzagi xulosalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Uzluksiz talim-tarbiya konsepsiysi, taraqqiyot strategiyasi, talim-tarbiya, manaviyat, marifat, islohot.

## KIRISH

Zamonaviy jamiyatda global ijtimoiy jarayonlar dinamikasining kuchayishi, davlat va jamiyat tomonidan belgilangan strategik vazifalarning murakkabligi, insoniyatning muammolarining keskinlashuvi keng ziyoli qatlama vakillari o'z diqqat e'tiborini ma'naviyat muammosiga qaratishga undamoqda. Bunda shaxs ma'naviy madaniyatining mazmuni va rivojlanishining modernizatsiyalashuvi bugungi kunda shaxs ma'naviy qiyofasini hamda butun jamiyat mavjudligini saqlab qolish imkoniyatini yaratadi.<sup>2</sup>

So'nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoev rahbarligida mamlakat hayotining barcha sohalarida samalari, anaiq maqsadga yo'naltirilgan islohotlar amalga oshirilib, davlat boshqaruv tizimin tubdan yangilash, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash borasida keng ko'lamli yangilanish va tashabbuslar boshlandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Jumladan mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Bu qonun farmon va qarorlar fuqarolarimizning turmush tarzini yaxshilash, baxtli va farovon hayot kechirishini ta'minlash, hamda ijtimoiy sohada barcha huquq va manfaatlarining ta'minanishiga dasturamal bo'lib xizmat qildi.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda<sup>3</sup>. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida ta'limtarbiyaning har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi orqali yechish zaruratiga ehtiyoj kuchaymoqda. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Chunki, o'sishi va taraqqiyoti uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Bu yosh avlodning moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishda ajdoddardan yuqoriq darajaga ko'tarilishi lozim ekanligini anglatadi.

Mustaqillik yillarda ma'naviy tarbiyada yangi strategik texnologiyalarni shakllantirish usullari sifatida o'tgan qisqa vaqt davomida jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish va qonun ustuvorligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muammolarni bartaraf etish uchun ma'naviy tarbiya texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Bunday texnologiyalar sifatida «mahalla — sektor — Xalq qabulxonasi — mahalla» tamoyili asosida samarali hamkorlik tizimini joriy etish, mahallani xalq bilan davlat o'rtasida ishonchli «ko'priki» bo'lishini amalda ta'minlash, oila va xotin-qizlarni qo'llabquvvatlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada jamiyatni ijtimoiy-madaniy muhitini yangi strategik texnologiyalarni shakllantirish usullari sifatida ko'rishimiz mumkin. Shaxslarning o'zaro munosabatlari turli shaklda, ijtimoiy sub'ektlar yoki ular o'rtasida yuzaga keladigan aloqlar munosabatlari ko'rinishi hisoblanadi.

<sup>1</sup> T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

<sup>2</sup> O'g'ilxon Namozovna Ahmedova "MA'NAVIY TARBIYA DA YANGI STRATEGIK TEXNOLOGIYALARNI SHAKLLANISHI" SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 321-b

<sup>3</sup> Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Muloqot jurnali, № 5, 1998 yil

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So'nggi yillarda mamlakatimizda ma'naviyat sohasini rivojlantirish borasida bir qancha qaror va farmonlar qabul qilinayotganligi ushbu soha rivoji uchun tirkak vazifasini bajarayotganligi barchamizga ma'lum. Jumladan, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni mazkur sohaning butunlay yangi, yuqori bosqichga chiqishi uchun xizmat qilib kelmoqda.<sup>4</sup>

Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida ma'naviyatga bo'lgan e'tibor mamlakat kelajagida muhim o'ringa ega hisoblanadi. Ma'naviyatl shaxs yetuk kadr sifatida jamiyat taraqqiyoti konteksti belgilab beradi. Bu borada ta'lim-tarbiya asosiy omil sifatida ma'naviy tarbiyaning strtegik maqsadlarini belgilovchi vositasa sifatida e'tirof etiladi. Juhon miqiyosida mayjud muammolarining oldini olish borasida YuNESKO tomonidan 70-80- yillardan boshlab harakat boshlangan bo'lib, unda bag'ishlangan ma'ruzalarda ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, 1979 yilda D. Botkin, M. Elmandira, M. Malis tomonidan tayyorlangan "O'rganish uchun chegara yo'q"<sup>5</sup> kabi muhim hisobotlarni keltirish mumkin. Unda zamonamizning global muammolarini hal etishda, shuningdek, inson va u yaratgan sivilizatsiya o'rtasida vujudga kelgan bo'shlqnib bartaraf etishda ma'naviy tarbiyaning o'rni va rolini beqiyos ekanligi belgilab berilgan.

Shuningdek, "ma'naviyat" va "shaxs" tushunchalarini falsafiy tahlil qilish asosida shaxs ma'naviy madaniyatining mohiyatini aniqlash va uni shakllantirish omillari strategik yo'llarini o'rganish borasida faylasuf F.Yu.Abramov va V.I.Kudashov o'zining "Dialogik hodisa va zamonaviy ta'lim"da ta'kidlaydi. Bu bilan insoniyatni odamlar o'zlarini halok bo'lgan bir qator ofatlardan qutqarishi inson hayotini tashkil etish va ta'minlashda ishtirot etuvchi turli tizimlar o'rtasidagi umumiy va ochiq muloqot ma'naviy muhitga bog'liq<sup>6</sup> jarayon hisoblanishiga dalolatdir.

## NATIJALAR

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, hususan ta'lim sohasidagi islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizda jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlari aniq belgilab olindi. Bular:

- ✓ umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- ✓ xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- ✓ insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- ✓ vatanparvarlik<sup>7</sup>.

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotining emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi.

Kuni kecha qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 sonli Farmon islohotlarning mantiqiy davomi va ularning natijasini belgilash, mamlakatimizni yanada yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarish, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy sohalarda muvaffaqiyatlarga erishish jarayonining me'yoriy-huquqiy asoslarini ta'minlash nuqtai nazaridan ulkan ahamiyatga ega bo'ldi.

Mazkur taraqqiyot strategiyasi o'z mazmunida:<sup>8</sup>

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; - ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

<sup>4</sup> Mamatqulov Eldor "TARAQQIYOT STRATEGIYASI YANGI O'ZBEKISTONDAGI MA'NAVİY ISLOHOTLAR ASOSI" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 951-b

<sup>5</sup> Jahongirov Burxon Bo'ronovich. O'zbekistonda ilm-fan holati, taraqqiyot yo'nalishlari (1980-2010 yillar). Monografiya."Qaqnus media" nashriyoti, Toshkent. 2020. -b.58

<sup>6</sup> Jahongirov Burxon Bo'ronovich. O'zbekiston fanlar akademiyasining xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy - texnikaviy aloqalari. QarDU xabarları Ilmiynazariy, uslubiy jurnal. Maxsus son (Ijtimoiy fanlar).Qarshi.2020.-b.254- 258

<sup>7</sup> Mirziyoev Sh.M. Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. № 276. 30.12.2020.

<sup>8</sup> Sevara Faxriddinovna Mo'minova "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belginlangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida tarbiyachining burchlari va mas'uliyati?" "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 1449

- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borishga doir strategik vazifalarni ifoda etib, har bir mamlakat rivoji, taraqqiyoti va kelajagi haqida qayg'uradigan, Vatan manfaatlarini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yadigan, o'z navbatida o'zining farovon, erkin va saodatlari hayot kechirishi uchun faoliyat olib boradigan aholining barcha qatlamlari uchun dasturiy vazifa sifatida belgilandi.

Taraqqiyot strategiyasi "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" degan tamoyil asosida amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, 7 ta ustuvor yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi. "Beshinch yo'nalish doirasida asosan ma'naviy va ma'rifiy sohalar rivojlantirilishi nazarda tutilgan. Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiysi amalga oshiriladi. Madaniyat va san'atni yuksaltirish, yoshlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi"<sup>9</sup>.

Shaxs ma'naviyatining strategik texnologiyalari shakllantirish usullari quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati yuksalishi; Ikkinchidan, bilim, ko'nikma va malakalar;

Uchinchidan, insoniy tuyg'ularni ya'ni, shaxs ma'naviy ta'siri ob'ekt bo'lgan madaniyat shakllarida namoyon bo'ladi.

Ilmiy tadqiqot natijasi jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarda ma'naviy tarbiyaning yuksalishi shaxsnинг ijtimoiy jarayonda ma'naviyatga asoslanishini bildiradi.

## MUHOKAMA

Umuman olganda ma'naviyatli xalq va jamiyatni yaratish uchun ushbu konsepsiya muhim ahamiyatga egadir.

Ma'naviyatning yagona umumiyy ta'rifi mavjud emasligini hisobga olsak, falsafiy, teologik, psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

Birinchidan ma'naviyat dunyoning universal ruhiy boshlanishi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, insonning mohiyati, uning ruhining potensial imkoniyatlari bu boshlang'ich bilan tanishish o'chovi sifatida qaraladi.

Ikkinchidan, uyg'unlashtirish tamoyillari sifatidagi aksiologik yo'nalish vakillari sifatida shaxsnинг ichki ma'naviy absolyutlarini, axloqiy qadriyatlarini ko'rsatadi.

Uchinchidan, kognitiv yondashuv tarafdorlari ruhiy hayotning oqilonqa tomonini aniqlashga intiladi. Bir qator zamona viy mualliflar ma'naviyatni o'rganishning sotsiologik jihatlariga murojaat qiladilar va uni gnoseologik va ijtimoiy ehtiyojar bilan bog'liq bo'lgan shaxsnинг ichki dunyosiga xos xususiyat sifatida baholaydilar.

Yangilanayotgan O'zbekistonning ma'naviy qiyofasini yuksaltirish masalasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimizning o'z istiqlol va taraqqiyot mafkurasini belgilab olishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizning, muqaddas dinimizning bebafo ahamiyatini e'tiborga olish lozim. Zero, ma'naviyat murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, uning taraqqiyotiga juda ko'p omillar – siyosat, iqtisod, fan, axloq, san'at, din kabi hodisalar bevosita ta'sir etib turishi ma'lum.

## XULOSA

Bir so'z bilan aytganda mamlakatimizning hartomonlama iqtisodiy va ma'naviy marify rivojlanishida taraqqiyot strategiyasi va uzlusiz tarbiya konsepsiyalari muhim lokomativ vazifasini o'taydi.

Ma'naviy jihatdan olib qaraganda ushbu jarayonlarda konsepsiyaning asosiy jihatlari quyidagilarda ifodalananadi:

Birinchidan, ta'lim-tarbiyaning milliy ma'naviy negizlari globallashuv va "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'sirlaridan yoshlarimizni saqlab turuvchi, ularni ma'naviy qadriyatlarimiz negizida tarbiyalovchi o'ziga hos bir asos bo'lib hizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz umumbashariy qadriyatlarni o'ziga qabul qilib, ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshishiga, rivojlanishga ta'sir ko'rsatmoqda.

Fikrimiz so'ngida yuqorida mulohazalar asosida quyidagi hulosalarni keltirish mumkin:

- O'zbekistonda ta'lim-tarbiyaning milliy-ma'naviy negizlari murakkab, o'ziga hos tushuncha bo'lib, asrlar mobaynida ajodolarimiz tomonidan ushbu sohada shakllangan tajribalari asnosida yuzaga kelgan va eng asosiysi ushbu tajriba vaqt sinovlaridan muvaffaqiyatli o'ta olgan.
- O'zbekiston hududida ta'lim-tarbiya va milliy ma'naviyat bo'yicha ajodolarimiz bizga ulkan meros qoldirishgan. Ana shu tajribadan to'g'ri foydalanish va shu bilan birga, ta'lim va tarbiyada inson omilini birinchi o'ringa qo'yishimiz lozim.
- Bugungi kunda ta'lim va tarbiya tizimini to'htovsiz rivojlanishi, ilmiy yangiliklar bilan boyib borishi zarurligini tushunishimiz va bu yo'nalishda umumbashariy tamoyillarga murojat qilishimiz, horijiy mamlakatlar fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'z lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. 06.11.2021

**ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish choratadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.02.2020 y., 06/20/5938/0187-son.
3. Mirziyoev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. № 276. 30.12.2020.
4. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 267
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘z lavozimiga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 06.11.2021
6. Abramov Yu.F., Kudashov V.I. Fenomen dialogichnoe i sovremennoe obrazovanie. - Irkutsk. 1998.
7. Abu Homid G‘azzoliy. Kimiyoi saodat. Toshkent. Adolat. 2005.
8. Ibrohim Karimov. Ma’naviyat, falsafa va hayot. Toshkent. Fan. 2007.